MILLIY QADRIYATLAR - ODOB-AXLOQ MEZONI

Umaraliyeva Muhayyo Abdugapparovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash ilmiy-tadqiqot” bo‘limi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), katta ilmiy xodim

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi dolzarb masala sifatidagi ahamiyati, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda milliy qadriyatlar va ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. O‘quvchilarda vatanparvarlik, oilaparvarlik, kasbiy fidoyilik, mustaqil va ijodiy fikrlash kabi ijobiy sifatlarni shakllantirishda tarbiyaviy ishlar texnologiyasining ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, milliy qadriyatlar, milliy mafkura, tarbiyaviy jarayon, ta’lim muassasasi, tarbiyaviy ishlar texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, barkamol shaxs, vatanparvarlik.

Аннотация. В статье освещается значение воспитания молодежи как одной из актуальных проблем развития общества, а также роль национальных ценностей и духовно-просветительского воспитания в обеспечении духовно-нравственного совершенствования подрастающего поколения. Анализируются педагогические возможности эффективной организации воспитательного процесса в образовательных учреждениях, использования современных педагогических технологий и интерактивных методов. Обосновывается значение технологий воспитательной работы в формировании у учащихся таких положительных качеств, как патриотизм, уважение к семье, профессиональная самоотдача, самостоятельное и творческое мышление.

Ключевые слова: воспитание молодежи, духовно-нравственное воспитание, духовно-просветительская работа, национальные ценности, национальная идеология, воспитательный процесс, образовательное учреждение, технологии воспитательной работы, педагогические технологии, интерактивные методы, гармонично развитая личность,

патриотизм.

Abstract. The article highlights the importance of youth education as one of the pressing issues of social development, as well as the role of national values and spiritual-enlightening education in ensuring the spiritual and moral development of the younger generation. It analyzes the pedagogical potential of effectively organizing the educational process in educational institutions and using modern pedagogical technologies and interactive methods. The importance of educational work technologies in developing positive qualities among students, such as patriotism, family values, professional dedication, independent thinking, and creative thinking, is substantiated.

Keywords: youth education, spiritual and moral education, spiritual and enlightening activities, national values, national ideology, educational process, educational institution, educational work technologies, pedagogical technologies, interactive methods, well-rounded personality, patriotism.

Tarixchi Gerodotni Sharqqa qilgan safari chog‘ida Misr ehromlarida duch kelgan “Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilmoq kerak?!” degan bitik nihoyatda ajablantirgan. Muarrixning bu yozuvni o‘qiganiga, tabiiyki, ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilganiga esa undan ham ko‘proq vaqt o‘tgani ehtimoldan xoli emas. Demak, yoshlar masalasi hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, unga barcha davrlarda turli darajada munosabat bildirilgan.

Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy yoshlarga murojaatnomasida, jumladan, bunday yozadi: “...Ushbu taraqqiy etgan zamonda ilmsiz, ma’rifatsiz, quruq taassub bilan yashab bo‘lmaydi. Hozirgi zamonaviy taraqqiyot va rivojlanish shunday kuchli bo‘lmoqdaki, ozgina fursat o‘tar-o‘tmas quruq va chirigan taassublarimizni ildizi bilan qo‘porib tashlaydi. Shuning uchun barcha yoshlarimiz bu borada bir narsaga tayanishlari mumkin. Bu narsa ilmu ma’rifatdir”.

E’tibor qarating, bu gaplar go‘yo bugun, bugungi kun uchun aytilganday. Zero, yoshlar tarbiyasi bugungi kun uchun ham asosiy va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning qiziqishlari, orzu-umidlari, o‘z kelajagiga qarashlari, ular jamiyatda qanday o‘rinni egallashni xohlashi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish, bu xususda to‘liq va xolis ma’lumotga ega bo‘lish bugungi kunimiz uchun ham nihoyatda muhim masala sanaladi.

Sotsiolog yoxud jamiyatshunoslar ham asosiy e’tiborni yoshlarga qaratgan, ularga o‘ziga xos madaniy xususiyatlar, qiziqishlar, qadriyatlar va o‘zini tutish me’yorlariga ega bo‘lgan ijtimoiy guruh sifatida qaragan, navqiron avlodning o‘ziga xos muammolari, ularning ijtimoiy

ildizlari haqida fikr yuritgan.

“...Ushbu taraqqiy etgan zamonda ilmsiz, ma’rifatsiz, quruq taassub bilan yashab bo‘lmaydi. Hozirgi zamonaviy taraqqiyot va rivojlanish shunday kuchli bo‘lmoqdaki, ozgina fursat o‘tar-o‘tmas quruq va chirigan taassublarimizni ildizi bilan qo‘porib tashlaydi. Shuning uchun barcha yoshlarimiz bu borada bir narsaga tayanishlari mumkin. Bu narsa ilmu ma’rifatdir”.

Ilmiy tahlillar yoshlar muammolarini alohida ijtimoiy guruh sifatida tadqiq qilish uni o‘rganishning asosiy metodologik prinsipi ekanini ko‘rsatmoqda. Yoshlar jamiyatning tarkibiy qismi, uning o‘ziga xos guruhi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois navqiron avlod shakllanishi va holatini uning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniq bir jamiyat doirasida tahlil qilish zarur.

Milliy mafkura bilan bog‘liq vazifalar tarbiyaviy jarayonda maxsus tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar vositasida amalga oshiriladi. Tarbiyaviy jarayon ta’lim muassasalarida o‘ziga xos ma’no kasb etadi. Ta’lim muassasalarida ilg‘or milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyat va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosim, bayram va o‘yinlar tarbiyaviy jarayon asosini tashkil etadi.

Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari milliy istiqlol g‘oyasi bilan qurollangan bo‘lib, uni har bir o‘quvchi ongiga yetkazish malakasi va mahoratiga ega bo‘lishi lozim. Barkamol shaxs tarbiyasi barcha davrlarda ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan.

Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va o‘tkazishda tarbiya texnologiyalari yoki interfaol uslublardan foydalanish o‘quvchida o‘z yurtiga mehr-muhabbat, oilaparvarlik, kasbiy fidoyilikni shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyaviy jarayon umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy ish uslublari, bilim, malaka va mahorat tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tarbiyaviy ishlar amaliyotida qo‘llash bilan bog‘liq masalalar pedagogik jamoalar uchun eng muhim muammo bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan tarbiyaviy ishlar texnologiyasini to‘g‘ri tashkil qilish va qo‘llashga bog‘liq.

Bu esa ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uslubini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishni taqozo etadi. Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar texnologiyasi

ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash, mohirona harakat, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi, tarbiyaviy ishlarda eng faol shakl, usul va uslublardan foydalanish, doimiy va jamoaviy faoliyatni taqozo etadi. Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar uslubiyoti va uni amalga oshirishning pedagogik texnologiyasi loyihalashtirish, amalga oshirish, nazorat va tahlil qilish kabi harakat va amaliyot ketma- ketligidan iborat bo‘ladi.

Bilimli, ma’naviyati yuksak va sog‘lom yoshlar mamlakatimiz kelajagi sanaladi. Bunday avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni esa, asosan, pedagog-o‘qituvchilar amalga oshiradi. Pedagog-o‘qituvchilar yoshlarni yuksak ma’naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalash bilan birga, ularni dunyoviy bilimlar bilan qurollantiradi, kelajak hayotga tayyorlaydi. Demak, Vatan kelajagi, uning ravnaqi ko‘p jihatdan o‘qituvchi-ustozlar berayotgan bilim miqyosi, mazmun-mohiyati va hayotiyligiga bog‘liq. Yoshlarimizda zamonaviy bilim va malakalarni shakllantirish, kasbga o‘rgatish, ularni odob-axloqli, ma’nan yuksak, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, irodasini mustahkamlash bugungi kunning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori. – 2019-yil 31-dekabr.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – 2022-yil 28-yanvar.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. – 2023-yil 11-sentabr.

4.Azizxo‘jayeva, N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.

5.Mavlonova, R., To‘rayeva, O., Holiqberdiyev, K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

6.Hasanboyev, J., To‘raqulov, X.A., Haydarov, M., Hasanboyeva, O.A. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.